



**Dilrabo ASHUROVA,**

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktorant*

*E-mail: ashurovadirabo@mail.ru*

*Pedagogika fanlari doktori, professor I.Islomov taqrizi asosida*

## WAYS TO INCREASE THE EFFECTIVENESS OF EDUCATION THROUGH THE COMMUNICATIVE METHOD

Annotation

The communicative approach to teaching English is the most important and widely used in various educational institutions today, because this approach is the communicative method that best develops the ability to communicate fluently and allows students to practice speaking in a real language environment. This article briefly discusses ways to improve the effectiveness of English language classes through a communicative approach. The researcher found that students' abilities improved significantly after being taught using a communicative approach to teaching.

**Key words:** Communicative approach, communication skills, communication environment, games that form communicative competence, creating a real language environment, effectiveness of training, perceptive skills, receptive skills

## ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБУЧЕНИЯ ПОСРЕДСТВОМ КОММУНИКАТИВНОГО МЕТОДА

Аннотация

Коммуникативный подход к обучению английскому языку сегодня является наиболее важным и широко используемым в различных учебных заведениях, поскольку данный подход является тем коммуникативным методом, который лучше всего развивает умение бегло общаться и позволяет учащимся практиковать разговорную речь в реальной языковой среде. В этой статье кратко рассматриваются способы повышения эффективности занятий английским языком посредством коммуникативного подхода. Исследователь обнаружил, что способности учащихся значительно улучшились после обучения с использованием коммуникативного подхода к обучению.

**Ключевые слова:** Коммуникативный подход, коммуникативные навыки, среда общения, игры, формирующие коммуникативную компетентность, создание реальной языковой среды, эффективность обучения, перцептивные навыки, рецептивные умения.

## KOMMUNIKATIV METOD ORQALI TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Annotatsiya

Ingliz tilini o'qitishning kommunikativ yondashuvi hozirgi kunda eng muhim va turli ta'lim muassasalarida keng qo'llaniladi, chunki aynan ushbu yondashuv ravon muloqot qilish qobiliyatini eng yaxshi rivojlantiradigan, o'quvchilarga haqiqiy til muhitida gapirishni mashq qilish imkonini beradigan kommunikativ usuldir. Ushbu maqolada kommunikativ yondashuv orqali ingliz tili darslarining samaradorligini oshirish yo'llari qisqacha muhokama qilinadi. Tadqiqotchi o'qitishning kommunikativ yondashuvidan foydalangan holda o'qitilgan so'ng o'quvchilarning qobiliyatlari sezilarli darajada yaxshilanganini aniqladi.

**Kalit so'zlar:** Kommunikativ yondashuv, muloqot ko'nikmasi, muloqot muhiti, kommunikativ kompetensiyani shakllantiruvchi o'yinlar, haqiqiy til muhitini yaratish, mashg'ulotlar samaradorligi, perseptiv ko'nikma, retseptiv ko'nikma

**Kirish.** O'qish, tinglash, yozish va gapirish ingliz tilidagi asosiy til ko'nikmasidir. Harmer o'qish va tinglashni perseptiv ko'nikma, gapirish va yozishni esa retseptiv ko'nikma ekanligini ta'kidlaydi. Xorijiy tilni egallash ushbu to'rt ko'nikmani egallashni nazarda tutadi. Muloqot ko'nikmasi til o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi chunki aynan ushbu ko'nikma talabalarga muloqot qobiliyatlarini amalda qo'llash imkonini beradi. O'quvchilar orasida mazmunli muloqot muhitini yaratish aynan ushbu ko'nikmani takomillashtirishda muhim hisoblangan materiallar tanlanishini taqozo etadi. Richardz materiallar xoh ta'lim muassasasi tomonidan taqdim etilgan, xoh o'qituvchilar tomonidan tayyorlangan bo'lishiga qaramay, til o'rganishda muhim element deb hisoblanishini ta'kidlaydi. Ushbu materiallarning barchasi o'quvchilarga ta'lim jarayonida o'tkaziladigan til amaliyoti uchun asos yaratishdan iborat[1].

Shifrin ta'lim jarayonida materiallardan oqilona foydalanish haqida fikr yuritir ekan, an'anaviy kitoblarni ko'p hollarda o'rganilayotgan tilning mazmunini yetarli darajada ochib bermasligini va o'quvchilarga yetarli kommunikativ bilimlarni bera olmasligini ta'kidlaydi[2].

**Adabiyotlar tahlili.** Svafer va Vlatenlarning fikricha, ta'lim jarayonida video materiallardan foydalanish talabalarni

haqiqiy muhitga jalb qilgan holda, ularni ushbu jarayondagi autentik ovoz va turli til dialektlarini his qilish imkonini beradi[3].

Bizning kuzatishimizcha, dars jarayonlarida audio-vizual materiallardan foydalanish talabalarning kommunikativ kompetensiyasini yaxshilabgina qolmasdan, balki ularning tasavvurini boyitib, dars jarayonini qiziqarli tashkillashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Yaponiyalik olim Abe guruhda ishlash va individual rivojlanish, turli muhokamalar va taqdimotlar kommunikativ yondashuv qo'llaniladigan ta'lim jarayonlarida foydali ekanligini ta'kidlaydi[4]. Bizning fikrimizcha, talabalar orasida ingliz tilidan doimiy ravishda foydalanish ularning nutqini yaxshilaydi, ammo ma'lum darajada noqulaylik keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, ingliz tilini o'qitishda guruhda ishlash va talabalar kommunikativ kompetensiyasini takomillashtiruvchi turli faoliyat turlarining samarali usullarini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Djeyasala o'qituvchi talabalarning kommunikativ kompetensiyasini doimo qo'llab-quvvatlashi, ularni insonlar bilan bog'lanish va o'rganilayotgan tildan foydalanish qobiliyatini yaxshilaydigan nutq faoliyatiga jalb qilish imkoniyatini berishi lozimligini aytadi[5].

Muslim, Mustafo, Usmon va Rahmon videokliplar yordamida talabalarning nutq qobiliyatlarini yaxshilashini aniqlash maqsadida tadqiqot o'tkazishdi. Talabalarga ushbu tadqiqot uchun oldingi va keyingi testlar berildi. O'quvchilar kichik guruhlarda va mustaqil ravishda ishlaydigan yosh o'quvchilar edi. Tadqiqotgacha bo'lgan va undan keyingi test natijalarini baholab, taqqoslab, tadqiqotchilar shunday xulosaga keldilarki, videokliplar o'quvchilarning individual nutqiy ko'nikmalarini oshirishdan ko'ra o'quvchilarning guruh ishlarida nutq qobiliyatlarini yaxshilashga yordam bergan. Ushbu tadqiqot ishiga tayangan holda mualliflar filmlarni sekinlashtirish va filmning asosiy qismlarini takrorlash kabi strategiyalardan foydalangan holda kichik guruh mashqlariga videokliplarni qo'shishni tavsiya qiladilar[6].

**Tadqiqotlar metodologiyasi.** Kommunikativ yondashuvga asoslangan ta'lim jarayonidagi chet tillarini o'zlashtirishda darslarda haqiqiy til muhitini yaratish orqali amalga oshiriladi. O'qitishning kommunikativ metodlarini ta'lim jarayonlariga qo'llashda o'qituvchilar o'rganilayotgan xorijiy tilda muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali bo'ladigan mashg'ulotlarni tanlaydilar. Kommunikativ yondashuvda grammatika, o'qish, yozish mashqlaridan farqli o'laroq, ko'proq og'zaki faoliyat muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular faol va ijodiy suhbat va talabaga oldindan ma'lum bo'lmagan javoblarni o'z ichiga oladi. Darslar talabalarning til bilish darajasiga qarab farqlanadi. Ushbu yondashuv asosida tashkillashtirilgan mashg'ulotlar o'zaro hamkorlik, ravonlik va qulaylikni targ'ib qiladi. Mishel Rozamondning so'zlariga ko'ra, quyida sanab o'tilgan 6 ta faoliyat turlari kommunikativ metodlar asosida tashkillashtirilgan mashg'ulotlarda qo'llaniladi[7]:

Rolli o'yinlar (role-play) – o'quvchilar qisqa vaqt mobaynida o'zlarini xayoliy vaziyatlarda sinab ko'radilar

Intervyu(Interviews) - savol va javoblardan tashkil topgan muloqot jarayoni

Jamoadi ishlash (group work) – vazifa ustida birgalikda ishlash

Axborot bo'shlig'i (information gap) – o'quvchilar ma'lum vazifani bajarish uchun barcha kerakli ma'lumotga ega bo'lmagan faoliyat turi bo'lib, ushbu ma'lumotlarga ega bo'lish uchun o'quvchilar bir-birlari bilan muloqot qilishlari lozim

Fikr almashish (opinion sharing) – fikr-mulohaza almashish orqali amalga oshiriladigan faoliyat turi

“Scavenger hunt” – ushbu o'yin turi talabalarning muammoni yechish ko'nikmalarini rag'batlantiradi chunki jamoalar turli buyumlarning joylashuvini o'rganish uchun jumboqlar, topishmoqlar va kodlarni yechish uchun raqobatlashishadi.

Kommunikativ yondashuv orqali ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari Sakarkaya tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, talabalar juftlik yoki guruhda ishlaganlarida nutq qobiliyatini yaxshilash imkoniyatiga ega bo'ladilar, o'quvchilar o'zlarini dadil, qulay va erkin his qiladilar, xato qilishdan qo'rqmasdan o'z fikrlarini erkin bayon eta oladilar, xatolarni tuzatish guruh talabalari orasida amalga oshiriladi[8].

Ingliz tili darslarida turli o'yinlardan foydalanishdan asosiy maqsad talabalarning turli ko'nikmalarini, ayniqsa ularning kommunikativ qobiliyatini takomillashtirishdir. Quyida turli manbalarda nashr etilgan sakkiz turdagi o'yinlar haqida qisqacha ma'lumot berdik[9,10,11,12,13,14].

Endryu Rayt, Devid Beterij va Maykl Bakbilar “o'yin” so'zini izohlashar ekan, til o'rganish murakkab jarayon ekanligini, o'rganilgan gapirish va yozish ko'nikmalarini amalda qo'llash lozimligini aytadilar. Bu uzoq muddatli jarayon bo'lib, ko'p harakat talab qilishini ta'kidlaydilar. O'yinlar esa ushbu jarayonning qiziqarli bo'lishini ta'minlab, ilm olishni rag'batlantiradi deb hisoblaydilar[18]. Ular

o'yinlar o'qitishning barcha bosqichlarida va ko'plab muloqot turlarida barcha ko'nikma turlarini birday shakllantirishini va talabalar til o'yinlarini o'ynashda barcha o'yin qoidalarini yaxshi tushunishlari lozimligini aytadilar. Demak, talabalar til o'yinlari orqali yozish, o'qish, gapirish va eshitish qobiliyatlarini birday yaxshilaydilar va, ayniqsa, an'anaviy metodlarda ko'p ahamiyat berilmagan gapirish va tinglash ko'nikmalarini ko'proq mashq qilish imkoniga ega bo'ladilar.

Guessing game( ) – Ushbu o'yinning asosiy maqsadi juda oddiy: bir o'quvchi bilgan ma'lumotni boshqa bir o'quvchi topishga harakat qiladi. Taxminiy farazlar asosida topiladigan so'z turlicha bo'lishi mumkin, bu so'z, ob'ekt, joy nomi yoki faoliyat turi bo'lishi mumkin. Bu o'yin turi talabalarni mantiqan fikrlash va savollar berish ko'nikmalarini shakllantirishda xizmat qiladi. O'yinda quyidagi kabi turli savollar berilishi mumkin:

What goes up and down but can't move? (Nima tepaga chiqadi va tushadi ammo qimirlamaydi?) Zinapoya

What goes up but never down? (Nima doimo tepaga chiqadi ammo hech qachon pastga tushmaydi?) Yosh

What has one eye but can't see anything at all? (Nimaning ko'zi bor ammo hech narsani ko'ra olmaydi?) Igna

The capital of this country is Tashkent and it is situated in Central Asia. (Bu mamlakatning poytaxti Toshkent va u Markaziy Osiyoda joylashgan)-O'zbekiston

Rasmi o'yinlar (picture games)-rasmi o'yinlarning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilar:

Rasmlardagi farqli va o'xshashlik xususiyatlarini inobatga olish;

Rasmlar orasidagi ketma-ketlikni, masalan hikoya ketma-ketligini inobatga olish;

Ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari ma'lumotga ega bo'lishlari va topa olishlari uchun rasmning asosiy xususiyatlarini tasvirlash;

Berilgan rasm bo'yicha hikoya tuzish;

Ushbu rasmi o'yinlarning aksariyati o'quvchilarni tildan nisbatan erkin foydalanishlarini osonlashtiradi va shu bilan birga, ularga gapirish va tinglash imkonini beradi.

Ovozli o'yinlar (Sound games)-ovozli effektlar tinglovchilar ongida odamlar, joylar va harakatlar haqida tasavvur qoldiradi. Tinglovchidan o'z tasavvurini qo'llay olish talab etiladi. Bu esa ularning individual talqin etish salohiyatlarini boyitishga sabab bo'ladi, ya'ni tinglovchilar o'z nuqtai-nazarlarini almashishlari, fikr va g'oyalarni ifoda etishlari rag'batlantiriladi. Bunday o'yinlar talabalarning tasavvur va tafakkurini boyitishi, tinglash va gapirish ko'nikmalarini mashq qilish imkonini beradi. Talabalar tovush orqali ifodalangan ob'ektni taxmin qilishlari yoki dialog, hikoya tuzishlari mumkin bo'ladi.

Mimikaga asoslangan o'yinlar (Mime games)-Mimika juftliklar, guruh va hatto butun sinf tomonidan bajarilishi mumkin. Birinchi guruh ma'lum harakatlarni amalga oshiradi, ikkinchi guruh esa ularni topadi. Bu buyum, harakat yoki inson bo'lishi mumkin. Mimikaga asoslangan o'yinlar til o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalar bunday o'yin turlarida mimika ortida yashiringan so'zni topishga intilishadi va buni haqiqiy kommunikativ jarayon deb atash mumkin. Ushbu jarayon talabalarning kuzatuv qobiliyatlarini va improvizatsiya ko'nikmalarini yaxshilaydi.

Masalan, juda qattiq shamollab, betob bo'lib qolgan bemor shifokor huzuriga kelib, o'zini qanday his qilayotganini tushuntirishga harakat qiladi. Tomog'idagi kuchli og'riq sababli u vaziyatni mimika asosida ifodalaydi. Shifokor esa bemorning holatini anglash uchun unga turli savollar beradi. Shifokor o'z ishini tugatmaguncha jarayon davom etadi. Bu turdagi o'yinlar juftliklarda yoxud guruhlarda tashkil etilishi mumkin.

Faktlarni aniqlash o'yinlari (Fact-finding games)-bu o'yinlar asosan umumiy bilimlar bilan bog'liq bo'lib, amaliy

mas'q bo'lib hisoblanadi. Har kuni yer yuzida ma'lum bir muhim voqea ro'y berishini inobatga olsak, talabalardan sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni ingliz tilida so'rash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday xabarlar sirasiga jahon hamjamiyatida ro'y berayotgan iqtisodiy va siyosiy yangiliklar, sport yangiliklari, mashhur insonlar hayoti bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlar, turli filmlarga doir qiziqarli ma'lumotlarni kiritish mumkin.

Who are the main heroes in Titanic? (Titanik filmining bosh qahramonlari kimlar?) Leonardo Dicaprio and Kate Winslet are the main heroes in Titanic

Who was the king of football in 2022? Lionel Messi was the king of football in 2022

Bunday savollar aynan shu kabi mashhur insonlar tug'ilgan kunlari sanasida berilishi mashg'ulotlarning samaradorligini ta'minlaydi. Talabalardan ushbu insonlar hayotiga doir yana qanday ma'lumotga ega ekanliklarini so'rash, ularning tipik rasmlarini chizish, tashqi qiyofasi va xarakterlarini tasvirlash mashg'ulotlari berilishi mumkin. Mashg'ulot oxirida o'qituvchi o'quvchilardan nega bu filmlar mashhurlikka erishganligi va nega qahramonlar insonlar qalbidan joy olganligini so'rashlari mumkin. Demak, bu kabi o'yinlar juftlik va guruhlarda tashkil etilishi mumkin.

Muhokamalar (Debates)-bu o'yin turida ma'lum bir mavzu tanlanadi va talabalar ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruhga ushbu mavzuning afzalliklari, ikkinchi guruhga esa noafzal jihatlari yoritish topshirig'i beriladi. Har ikkala guruh o'z ma'lumotlari asosida bahslashadilar. Ushbu faoliyat turining maqsadi talabalarni suhbat jarayoniga jalb qilish, ularning qiziqishlari va raqobatruhini rag'batlantirishdir. Bu mashg'ulot turi talabalarning muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshqotirmali o'yinlar (Jigsaw games)-Boshqotirmali o'yinlarni bajarishda talabalar hamkorlikda ishlashlari talab etiladi. Hikoya, rasmlar, turli tekstlar, boshqotirmalar ushbu o'yin turlari sirasiga kiradi. Muammoning yechimini topishda guruhda ishlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday o'yinlar orqali talabalar hamkorlikda ishlash va bir-birlarini tinglash qobiliyatlarini shakllantirishadi.

Rabea Ali boshqotirmali o'yinlar bo'yicha o'tkazilgan ko'plab tadqiqotlar o'quvchilarning ingliz tilini bilish qobiliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatganligini aytadi[19]. Meyers boshqotirmali o'yinlarning ta'lim jarayonida ko'plab afzalliklari mavjudligini ta'kidlaydi[20].

Rolli o'yinlar (Role plays)-Rolli o'yinlar odatda qisqa sahnalardan iborat bo'lib, talabalar o'zlarini xayoliy vaziyatlarda sinab ko'rishadi. Bunday o'yinlar kundalik vaziyatlar yoki dolzarb masalalar xususida amalga oshirilishi mumkin va ular odatda matnlar asosida sahnalashtiriladi. Talabalalar matnlarni o'rgangach, uni ijro etishlari mumkin bo'ladi. Bu turdagi o'yinlar talabalarning og'zaki nutqini yaxshilaydi va mavzuni oson usulda o'rganish imkoniyatini yaratadi. Bundan tashqari rolli o'yinlar talabalarning ta'lim jarayonida erkin fikr bildirish va autentik vaziyatlarga tayyorlik darajasini oshiradi.

Tahlil va natijalar

Ta'lim jarayonlarida til o'yinlarining samaradorligi bo'yicha amalga oshirilgan turli ilmiy-tadqiqot ishlarini o'rganib chiqish mobaynida, biz ushbu o'yinlardan ta'lim jarayonlarida foydalanishda o'qituvchilar uchun ahamiyatga molik bo'lgan quyidagi xususiyatlarni taklif qildik:

Vaqt-o'yinlarga ajratilgan o'qitish vaqti individual o'qitish mazmuniga bog'liqligini inobatga olgan holda, to'liq o'qitish jarayonini qamrab olmasligi muhim va til o'yinlari dars mobaynida test jarayonlaridan so'ng taranglikni bartaraf etish, ularning diqqatini ma'lum mavzuga jalb etish orqali talabalarni rag'batlantiruvchi omil sifatida foydalanilishi joiz.

Tanlov-turli rang-barang o'yinlar mavjudligini inobatga olgan holda o'qituvchilar o'z dars jarayoniga aynan qaysi o'yin mos kelishini aniqlashda turli omillarni inobatga olishlari muhim hisoblanadi:

A) Talabalarning til bilish darajasi

B) O'yinning asosiy maqsadi

V) O'quvchilarning qiziqishlari

G) O'yindan foydalanishning qulay vaqtini topa olish

D) O'yinda foydalaniladigan vositalarning mavjudligini inobatga olish

Tayyorgarlik-til o'yinlari turli zavq ulashuvchi faoliyat turidir ammo ular puxta tayyorgarlikni va tashkilotchilikni talab qiladi. Avvalo, o'qituvchi ta'lim mazmuniga mos bo'lgan o'yin turini tanlashi lozim. So'ngra zarur imkoniyatlar mavjudligi inobatga olinishi dardor. O'qituvchi tomonidan o'yin rejasi tuzilishi va talabalarga kerakli ko'rsatmalar berilishi o'ta muhim hisoblanadi. O'yinni samarali tashkil eta olish o'qituvchi individual qobiliyati va tashkilotchiligi bilan chambarchas bog'liq.

Menejment - O'yinni tashkil etish imkon qadar tez va muammosiz amalga oshirilishi uchun o'qituvchi talabalar va ta'lim xonasini oldinroq shay holatga keltirishi lozim. Juftlik va guruh ishlarini rag'batlantirish maqsadga muvofiqdir chunki bu talabalar faolligini sezilarli darajada oshiradi. Talabalarning hamkorlikdagi faoliyati o'qituvchi tomonidan nazorat qilinishi va faol bo'lmagan o'quvchilar rag'batlantirilishi muhim rol o'ynaydi.

**Xulosa.** Yuqorida berilgan ma'lumotlardan shuni xulosa qilish mumkinki, ingliz tilini til o'yinlari orqali o'rgatish va o'rganish talabalarning muloqot qobiliyatini oshirishda samarali tizim hisoblanadi. Ingliz tilini o'qitishning an'anaviy metodlarida esa talabalar o'z o'qituvchilarini tinglaganacha, ingliz tilidagi so'zlar va grammatik qoidalarni eslab qolishga harakat qilishadi. O'qitishning kommunikativ metodlari asosida tashkil etilgan dars jarayonlarida talabalar turli kommunikativ kompetensiyani shakllantiruvchi o'yinlar, mashqlar orqali haqiqiy til muhitida faol ishtirok etadilar. Bu esa ularga tilni o'rganishga bo'lgan qiziqishni uyg'otishi, o'qishga bo'lgan motivatsiyani oshirishi, rivojlantirishi va shu bilan birga, ular gapirish va tinglab tushunish ko'nikmalarini mashq qilish uchun ko'plab imkoniyatlarga ega bo'lishlari mumkin.

#### ADABIYOTLAR

1. McGrath, I. (2013). Teaching materials and the roles of EFL / ESL teacher: Practice and theory. The value of materials, New York: Bloomsbury Academic, 2013
2. Peacock, M. (1997) The effect of authentic materials on the motivation of EFL learners ELT Journal, 51(2), 144-156. <https://doi.org/10.1093/elt/51.2.144>
3. Salaberry, R. (2001). The use of Technology for Second Language Learning and Teaching: A Retrospective. Modern Language Journal, 85(1), 39-56. <https://doi.org/10.1111/0026-7902.00096>
4. Abe, E. (2013). Communicative language teaching in Japan: Current practices and future prospects: Investigating students' experiences of current communicative approaches to English language teaching in
5. schools in Japan. English Today, 29(2), 46-53. <https://doi.org/10.1017/S0266078413000163>
6. Jeyasala, V. R. (2014). A prelude to practice: Interactive activities for effective communication in English. Alternative pedagogies in the English language & communication classroom, 164-170.

7. Muslem, A., Mustafa, F., & Rahman, A. (2017). The application of video clips with small group and individual activities to improve young learners' speaking performance. *Teaching English with Technology*, 17, 25-37.
8. Mitchell Rosamond (1988). *Communicative language learning in practice*. United Kingdom: Clearing House for Language Teaching and Research. Page 23-24, 64-68. ISBN 978-0948003875.
9. Sakarkaya, V. (2013). 12 Pair and group work activities: Keep them or leave them?. *Teacher-researchers in acTion*, 163
10. Carrier, Michael. (1980). *Take 5 Games and Activities for the Language Learner*. Edinburgh: Nelson 's Company.
11. Ellis, Rod. (1986). *Understanding Second Language Acquisition*. Oxford: Oxford University Press
12. Harmer J. (1985). *The Practice of English Language Teaching*. New York: Longman.
13. Kallsen, Loren J. (1987). *Advanced Communication Games*. Edinburgh: Nelson's Company
14. Klippel, Fredric. (1984). *Keep Talking*. Cambridge: Cambridge University Press.
15. MaCallum, G. P. (1980). *101 Word Games*. Oxford: Oxford University Press.
16. Porter-Ladousse, G. (1987). *Role Play*. Oxford: Oxford University Press
17. Stern, H.H. (2002). *Fundamental Concepts of Language Teaching*. Shanghai: Shanghai Foreign Language Education Press
18. Willis, J. (1982). *Teaching English Through English: A Course in Classroom Language and Techniques (Handbooks for Language Teachers)*. London: Longman.
19. Andrew Wright, David Betteridge, Michael Buckby, *Games for Language Learning*, third Edition, Cambridge University Press, p. 1
20. Rabea Ali, *The Role of Jigsaw IV based on WhatsApp in Enhancing English Vocabulary among EFL Major Students*, p. 9-13
21. Meyers, S. A. (1997). Increasing student participation and productivity in small-group activities for psychology classes. *Teaching of Psychology*, 24 (4), 105-115.